

BEGONA O'TLARGA QARSHI TUPROQQA ISHLOV BERISH USULLARINI UNING G'OVAKLIGIGA TA'SIRI

Karimov Nurbek Dexqanovich,

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Andijon mintaqaviy filiali katta ilmiy xodimi,
ORCID ID: 0009-0006-3943-6372.

Annotatsiya. Tuproqqa oddiy plug bilan 28-30 sm chuqurlikda shudgorlangan fonga nisbatan tuproqqa ikki yarusli plug bilan 28-30 sm chuqurlikda shudgorlangan fonda tuproqning g'ovaklik ko'rsatkichlari 0-30 sm 0,86% gacha, tuproqning 30-50 sm qatlamlarda esa mos ravishda 0,99% gacha kam bo'lganligi kuzatilib, ishlov berish usullariga nisbatan tuproqning g'ovakligi 0,13% ga kam bo'lganligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: tuproq, ishlov berish, fon, plug, begona o't, g'ovaklik, gerbitsid, soya.

Аннотация. По сравнению с почвой, вспаханной на глубину 28-30 см простым плугом, пористость почвы в слое, вспаханной на глубину 28-30 см двухъярусным плугом, была на 0,86% ниже в слое 0-30 см и на 0,99% ниже в слое 30-50 см соответственно, а также было установлено, что пористость почвы была на 0,13% ниже по сравнению с методами обработки почвы.

Ключевые слова: почва, обработка, фон, плуг, сорняк, пористость, гербицид, соя.

Abstract. Compared with the soil plowed to a depth of 28-30 cm with a simple plow, the soil porosity in the layer plowed to a depth of 28-30 cm with a two-tier plow was 0.86% lower in the 0-30 cm layer and 0.99% lower in the 30-50 cm layer, respectively, and it was also found that the soil porosity was 0.13% lower compared with the tillage methods.

Key words: soil, processing, background, plow, weed, porosity, herbicide, soybean.

Kirish. Respublikamizda aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini muntazam ta'minlash, chorvachilik va parrandachilikni ozuqaga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish hamda almashlab ekish dalasida ekinlar hosildorligini oshirish maqsadida soya ekinining ekish keng yo'lga qo'yish bo'yicha keng qamrovli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida PF-5853-sonli Farmonida» belgilangan vazifalarni amalga oshirish qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish hajmini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustaxkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish muhim strategik vazifalar sifatida belgilanib bu bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish dolzarb xisoblanadi.

Asosiy ekin sifatida soya navlarini parvarishlashda soya maydonlarida uchraydigan begona o'tlarga qarshi uyg'unlashgan kurash choralariga bog'liq holda tuproqning unumdorligini saqlash hamda oshirish, aholini oziq-ovqat va chorvachilikni yem-hashak mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, soyadan yuqori va sifatli hosil olishda soya maydonlarida uchraydigan begona o'tlarga qarshi kurash choralarining agrotexnologik elementlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi Andijon viloyatining o'tloq botqoq tuproqlari sharoitida asosiy ekin sifatida soya parvarishlanayotgan maydonlarda uchraydigan begona o'tlarga qarshi uyg'unlashgan (tuproqqa asosiy ishlov berish usullari hamda gerbitsidlarni qo'llash) xolda kurashishda soyadan yuqori va sifatli hosil yetishtirishni ta'minlaydigan agrotexnologiya elementlarini takomillashtirishdan iborat.

Materiallar va usullar. Tadqiqotda kuzatuv va taxillar O'zPITda qabul qilingan "Dala tajribalarini o'tkazish" uslubnomasi asosida, tajriba variantlarida tuproqning agrofizikaviy, agrokimyoviy va mikrobiologik xossalarni o'rganish "Методы агрохимических, агрофизических микробиологических исследований в по-

ливных хлопковых районах" uslubiy qo'llanmalari bo'yicha, olingan ma'lumotlarning aniqligi va ishonchligi umum qabul qilingan Б.А.Доспеховнинг "Методика полевого опыта" uslubiy yordamida matematik-statistik tahlil Microsoft Excel kompyuter dasturi asosida amalga oshirilgan.

Natijalar va munozara. M.V.Muxamedjanovning ta'kidlashicha tuproqqa asosiy ishlov berishda tuproqning ustki qatlami pastga ag'darib tashlanishi kerak. Natijada yerning yuza qismini g'ovakligi ortib, uning agrofizik xossalari va oziq rejimi yaxshilanadi, shu bilan birga begona o'tlar urug'lari, har xil zararkunanda va kasallik tarqatuvchilar tuproq yuzasidan uning chuqur pastki qatlamlariga ag'darib tashlanadi. Pastki qatlamdagi strukturasi buzilmagan, oziq moddalar va suv-fizik xossalari yaxshi bo'lgan tuproq yuza qismga olib chiqiladi.

Tadqiqotimizda agrofizik xossalaridan biri bo'lgan tuproqning g'ovaklik ko'rsatkichlari bo'yicha xam ilmiy izlanishlar olib borildi.

Soyada olib borilgan tadqiqotlarimizda tuproqning g'ovaklik ko'rsatkichlari variantlar kesimida o'rganilganida, asosiy ekin sifatida ekishdan oldin tuproqqa oddiy plug bilan 28-30 sm chuqurlikda ishlov berilgan nazorat (1-variant) variantda tuproqning 0-30 sm qatlamida tuproqning g'ovakligi 53,70% ni, shudgor osti 30-50 sm qatlamida 49,63% ni ko'rsatgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkichlar 2, 3 va 4-variantlarda tuproqning 0-30 sm qatlamida 52,96-53,33-53,32% ga, 30-50 sm qatlamida 49,26% ga teng bo'lganligi kuzatilib, fon bo'yicha o'rtacha tuproqning 0-30 sm qatlamida 53,33% ni, 30-50 sm qatlamda esa 49,38% ni tashkil etganligi aniqlandi (1-jadval).

Tuproqqa ikki yarusli plug bilan 28-30 sm chuqurlikda shudgor o'tkazilgan fon variantlar kesimida tahlil qilinganida, 5-variant (nazorat)da tuproqning 0-30 sm qatlamida g'ovaklik ko'rsatkichi 54,07% ni, 30-50 sm qatlamida esa 50,37% ni, bu ko'rsatkichlar 6-7 va 8-variantlarda tuproqning 0-30 sm qatlamlarida 54,44-53,70-54,44% ni, 30-50 sm qatlamlarida esa 50,0% ni tashkil etgani holda fon bo'yicha o'rtacha 0-30 sm qatlamda 54,07% ga, 30-50 sm qatlamda 50,12% ga teng bo'lganligi qayd etildi.

Turli usulda ishlov berishni tuproqning g'ovakdorligiga ta'siri, % (2022 y)

Var	Qatlamlar, sm	Oddiy plug bilan 28-30 sm chuqurlikda shudgorlash		Ikki yarusli plug bilan 28-30 sm chuqurlikda shudgorlash	
		0-30	30-50	0-30	30-50
1/5	Ekishdan oldin	53,70	49,63	54,07	50,37
2/6		52,96	49,26	54,44	50,00
3/7		53,33	49,26	53,70	50,00
4/8		53,32	49,26	54,44	50,00
O‘rtacha		53,33	49,38	54,07	50,12
1/5	Amal davri oxirida	50,74	47,78	51,48	48,89
2/6		50,37	47,78	51,11	48,52
3/7		50,74	48,15	51,85	49,26
4/8		50,74	48,78	51,85	49,89
O‘rtacha		50,62	47,90	51,48	48,89

Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tuproqqa ishlov berish usullarini g'ovaklik ko'rsatkichlariga ta'siri sezilarli bo'lganligi kuzatilib, tuproqqa oddiy plug bilan 28-30 sm chuqurlikda shudgorlangan fonga nisbatan tuproqqa ikki yarusli plug bilan 28-30 sm chuqurlikda shudgorlangan fonda tuproqning g'ovaklik ko'rsatkichlari 0-30 sm va 30-50 sm qatlamlarda mos ravishda 0,74% gacha kam bo'lganligi qayd etildi.

Amal davri oxiriga kelib, tuproqning g'ovaklik ko'rsatkichlari variantlar kesimida tahlil qilib chiqilganida, tuproqqa ishlov berish usullari va tuproqning hajm og'irligiga mos ravishda tuproqqa

oddiy plug bilan 28-30 sm chuqurlikda shudgorlangan fonga nisbatan tuproqqa ikki yarusli plug bilan 28-30 sm chuqurlikda shudgorlangan fonda tuproqning g'ovaklik ko'rsatkichlari 0-30 sm 0,86% gacha, tuproqning 30-50 sm qatlamlarda esa mos ravishda 0,99% gacha kam bo'lganligi kuzatilib, ishlov berish usullariga nisbatan tuproqning g'ovakligi 0,13% ga kam bo'lganligi aniqlandi.

Demak, olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, tuproqqa ishlov berish usullarini tuproqning g'ovakligiga sezilarli ta'sir etganligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-son «Qishloq xo'jaligida er va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni
- 2.Мўминов К.М., Ризаев Ш.Х. Агротехнические и химические меры борьбы с сорняками на посевах озимой пшеницы // Зерновое хозяйство. 2005. №6. С. 21-22
- 3.Sh. Teshabayev. Begona o'tlarga qarshi kurashda tuproqqa turli usulda ishlov berib, gerbitsidlar qo'llashning g'o'za unib chiqishi hamda hosildorligiga ta'siri: (Qishloq xo'jaligi jurnali) 2020. № 2 B 39-40.